

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARI FAOLIYATIDA KOMPETENTLILIKNING ROLI

Xabibullo Sharipov Abdulkaxxorovich

Termiz davlat universiteti Sport boshqaruvi kafedrasini o'qituvchisi

РОЛЬ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ

Хабибулло Шарипов Абдукаххорович

Преподаватель кафедры «Спортивный менеджмент» Термезского государственного университета

THE ROLE OF COMPETENCE IN THE ACTIVITIES OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Xabibullo Sharipov Abdulkaxxorovich

teacher of the Department “Sport Management” at Termez State University



Tel: +998937640627
xabibullosharipov72@
gmail.com
Orcid: 0009-0002-
9422-3522

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan bo'rajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy ijodkorligini rivojlantirishda kompetentli yondashuvning o'rni, uni o'zlashtirish va faoliyatda o'zlashtirilgan harakat amallarini qo'llay olish, shuningdek kasbiy kompetentlikni shakllantirishning maqsadi hamda vazifalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kompetensiya, kasbiy faoliyat, samaradorlik, yondashuv, muloqot, mahorat, sifat, iste'dod, iqtidor.

Аннотация: В данной статье автор представляет информацию о роли компетентностного подхода в развитии профессионального творчества будущих учителей физической культуры, его овладении и умении использовать освоенные действия в деятельности, а также цели и задачи компетентностного подхода формирование профессиональной компетентности.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, профессиональная деятельность, эффективность, подход, общение, умение, качество, талант.

Abstract: In this article, the author provides information about the role of the competence approach in the development of professional creativity of future physical education teachers, its mastery, and the ability to use the actions mastered in the activity, as well as the purpose and tasks of the formation of professional competence.

Key words: competence, competency, professional activity, efficiency, approach, communication, skill, quality, talent.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION. O'zbekiston Respublikasining ertangi kuni va kelajagini zamonaviy talim va texnologiyalar bilan ta'minlay oladigan iqtidorli, erkin va ijodiy fikrlay oladigan, jamoa va kollektivga o'z qarashlarini etkazib bera oladigan, malakali, shu bilan birga shaxsiy va kasbiy sifatlari shakllangan barkamol kadrlarni tayyorlash maqsadini ko'zlaydi. Bunga sabab shuki ildamlab borayotgan dunyo

xalqlarining globallashuv jarayonini tezda o'zlashtira oladigan, savdo bozorida o'z o'mini yo'qotmaydigan hamda millatning barqarorligini ta'minlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash ta'lim tizimining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Shuning uchun ham bugungi kunda mustaqil fikrlovchi erkin shaxs konsepsiyasini amalga oshirish uzuksiz ta'lim tizimining bosh vazifasi bo'lib, bunda kompetentli yondashuv asosida

bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shuningdek mutaxassisning kasbiy kompetentligini tarbiyalash masalalari tadqiqot ob'ekti sifatida maktab o'qituvchisini yoki oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisini tayyorlash va malakasini oshirish doirasida qaraladi. [2]

«Kompetentlik» atamasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib keldi. Bu tushuncha noan'anaviy vaziyatlarda yoki kutilmagan hollarda o'zini qanday tutish, muloqotga kirishish, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutish, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, hamisha rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda qanday harakat qilishi kerakligi to'g'risida nazariy bilimlar zarurligini ko'rsatadi [1].

Bu ma'noda kompetentlik kasb egasining tavsifi hisoblanadi, shu bilan birga mutaxassisning samarali kasbiy faoliyatga qodirligining tavsifi sifatidagi kompetentlik ta'limga kompetentli yondashuvning asosi bo'lib qoldi. Bunday kompetentlikning murakkab, integral xarakterini ta'kidlab o'tgan holda, xorijdagi boshqaruv modellarida uning uch darajasi yoki turi ajratib ko'rsatiladi:

-integrativ kompetentlik – bilim va ko'nikmalar ni o'zlashtirishga va tashqi muhitning tez o'zgarib turadigan sharoitlarida ulardan foydalana olishga qodirlik;

-ijtimoiy-psixologik kompetentlik – zehn-idrok, odamlarning xulq-atvorini tushunish bo'yicha bilimlar va ko'nikmalar, ularning faoliyati motivatsiyasi, kirishuvchanlik va muloqot madaniyatining yuqori darajadaligi;

-boshqaruv faoliyatining muayyan sohalari bo'yicha kompetentlik – qarorlar qabul qilish, axborot yig'ish, odamlar bilan ishlash metodlari va hokazolar. [3]

Yangi ijtimoiy-ta'limiy g'oyalar nuqtai nazaridan kompetentlik tushunchasi yanada rivojlanib bormoqda. Kompetentlikni rivojlantirish bosqichlaridan birinchisi – uning tarkibiy qismlari doirasini subyekt kasbiy faoliyati uchun muhim bo'lgan kompetensiyalarning qo'shimcha sohalarini kiritish hisobiga kengaytirish bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ/LITERATURE ANALYSIS). Psixolog A.K. Makarova kasbiy kompetentlik tushunchasi insonning barcha xislatlarini o'z ichiga

oladi, ular yordamida kasbiy faoliyat davomida inson yuksak natijalarga erishadi deb uqtiradi. Uning fikricha, kasbiy kompetensiya mutaxassisning shunday mehnat faoliyatiki, natijada yuqori darajada kasbiy faoliyat amalga oshiriladi va mutaxassis shaxs sifatida o'zini namoyon qiladi. Shunday qilib, A.K.Makarova kasbiy kompetensiya tushunchasi mazmunini yanada kengaytiradi, uning tarkibiga mutaxassisning subyektiv xususiyatlarini ham kiritadi [3].

L.M.Dolgovaning fikricha, kompetentlik – egallagan bilimlar asosida faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishdir. Kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi. Kompetentlik – ijtimoiy-amaliy ko'rinishidagi bilim va ko'nikmalardan iborat mavjudlik bo'lib, ta'lim jarayoni natijalariga jamiyat tomonidan ijtimoiy-madaniy talablar qo'yiladigan hollarda namoyon bo'ladi.

Bu sohada, kompetentlik va kompetensiya bilan bog'liq muammolarni, umuman, ijtimoiy kompetensiyalarni, tadqiq etish ishlariga xorijlik olimlar L.P.Alekseeva, V.M.Basova, N.V.Nuzmina, A.K.Makarova, L.M.Mitina, V.G.Podzolkov, A.A.Petrovskaya, A.N.Sergeev, A.V.Ser-geeva, G.I.Sivkova, N.A.Shaydenko kabi olimlar ulkan hissa qo'shanlar. Pedagog-olimlarning ishlarida kompetentlikning pedagogik nuqtai nazaridan yanada kengroq va sinchiklab o'rganish imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan va o'rganib chiqilgan. [6]

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Shunday qilib, kompetentlikni layoqatilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma'lum bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin. Boshqacha aytganda, kompetentlik – faoliyatga doir kategoriya bo'lib, subyektning qo'yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi. Umumiyl holda ta'riflaydigan bo'lsak, kompetentlik – individning jamiyatda, xususan kasbiy faoliyat sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi, atrofidagi obyektlar va subyektlar bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha muayyan malakalar va kasbiy tajribalar shakllanganligining muayyan darajasini demakdir.

Bo'lajak o'qituvchi — umumiyl malakaviy kompetensiyalar, kasbiy kompetensiyalar, jumladan: nazariyani amaliyatga tatbiq etish bo'yicha, metod va texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish

bo'yicha, ilmiy-metodik ishlarni amalga oshirish bo'yicha, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish bo'yicha, shuningdek, kasbiy mahorat bo'yicha kompetensiyalarga ega bo'lishi juda zarurdir, ya'ni bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligi shakllanishida ham protsessual, ham shaxsnинг ijodiy fazilatlari rivojlanib borishi lozim. [5]

Kompetentlikning shakllanganligi to'g'risida inson mehnatining natijasiga qarab baho beriladi. Har bir xizmatchining kompetentliligi darajasi uning bajargan ishi shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo'yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi.

Kompetentlik to'g'risida insonning mehnat faoliyati davomida qilgan harakatlarining miqdoriga qarab emas, balki faoliyatning natijasiga qarab baho berish to'g'ri bo'ladi. Xuddi shuningdek, savodxonlik darajasiga qarab ham kompetentlikni belgilab bo'lmaydi [4].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ta'lim jarayonining ham mazmunini, ham shakllarini o'zgartirish zarur. Bunda o'zgartirilgan shakllar ta'lim oluvchilarga ma'lum bir kompetensiyalar bo'yicha bilim bermasdan, balki, butun ta'lim jarayoni davomida ular asosida faoliyat olib borishlarini ta'minlashi kerak. Ya'ni, ta'lim oluvchi navbatdagi ko'nigmalar to'plamini shakllantirish yo'li bilan bo'lajak kasbiy faoliyatiga tayyorlanishi emas, balki, kompetensiyalarni bir vaqtning o'zida singdirib borishi kerak. Shuning uchun kompetentlik ta'limi natijasida quyidagilar ta'minlanishi kerak:

-o'z-o'zini harakatga keltirish manbai sifatida ta'lim olishga ichki motivatsiyaning mavjud bo'lishi;

-yaxlit faoliyatni egallash sharti sifatida o'quv faoliyati jarayonida o'z-o'zini tashkillashtirish qobiliyati;

-har bir odamga o'zining u yoki bu o'quv materialini o'zlashtira olish darajasini aniqlash imkonini beruvchi o'z-o'zini differensiatsiyalash (o'z darajasini aniqlay bilish) qobiliyati;

-ta'lim oluvchi tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan natijalarga erishishlik;

-ta'lim jarayonining barcha subyektlari orasidagi o'zaro bog'langan samarali faoliyatning mavjudligi. [2]

Yuqorida sanab o'tilgan kompetensiyalarning barchasi bir insonda mujassam bo'imasligi mumkin.

Inson o'z kasbiy yo'nalishi bo'yicha yaxshi mutaxassis bo'lishi mumkin, lekin muloqotga kirisha olmasligi, o'z-o'zini takomillashtirish bo'yicha vazifalarni amalga oshira olmasligi mumkin. Shunga ko'ra, uning maxsus kompetentligini yuqori darajada, ijtimoiy va shaxsiy kompetentligini pastroq darajada deb e'tirof etish mumkin [2].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilsak, kompetentlikka yo'naltirilgan ta'limning metod va texnologiyalari ma'lum bir sharoitlarda shakllantirilgan qobiliyatlarning boshqa bir sharoitlarga oson ko'chishi va moslashuvchanligini ta'minlashi kerak, ya'ni "noadaptiv faollik" xususiyatini hosil qilishi lozim.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Eshqobilov E.M. (2023). Development of professional pedagogical creativity of future physical education teachers on the basis of a competent approach. International bulletin of engineering and technology, 3(3), 201–204.
2. Salomov R.S. Sport mashg'ulotning nazariy asoslari – Toshkent. O'quv qo'llanma O'zDVTI, 2005 – 238 b.
3. Долгова Л.М. Пробные действия учащихся в пространстве инновационной школы. 2007. С.191-193.
4. Кричевский В.Ю. Финансовая самостоятельность в сфере образования: Первые шаги: пособие для руководителей образовательных учреждений – М.: Просвещение, 2007. – 176 с.
5. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Знание, 1996. – 308 с.
6. Эшқобилов, Э. (2024). Компетенциявий ёндашув асосида бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчининг касбий-педагогик ижодкорликни ривожлантириш методикаси. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/ Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(1).